

Iroda XAJIYEVA,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali dotsenti

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti A. Atajonovaning taqrizi asosida

TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY MEROSGA BO'LGAN MUNOSABATINI O'RGANISH EHTIYOJLARI VA MOTIVLARI ("HAFT SHUARO" MAJMUASINI O'RGANISH MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqlada texnika olyi ta'lif muassasalarini talabalarida ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda birlamchi manbalarning o'rni va ahamiyati psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlar rivojlanganligini aniqlashda innovatsion pedagogik sharoit talablari, axborot muhiti qoidalari negizida takomillashtirish vazifalariga e'tibor qaratilgan. "Mutolaa" tushunchasining psixologik mazmuni oshib berilgan. "Haft shuaro" majmuasini o'rganishda mobil texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy qadriyat, motiv, faoliyat, axborot texnologiyalari, ma'naviy meros, birlamchi manba.

ПОТРЕБНОСТИ И МОТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ ОТНОШЕНИЙ СТУДЕНТОВ К ДУХОВНОМУ НАСЛЕДИЮ (НА ПРИМЕРЕ ИЗУЧЕНИЯ КОМПЛЕКСА «ХАФТ ШУАРО»)

Аннотация

В статье анализируется с психологической точки зрения роль и значение первоисточников в развитии нравственных ценностей у студентов технических вузов. Уделяется основное внимание исходя из требований инновационных педагогических условий и правил информационной среды на задачам совершенствования развития нравственных ценностей у молодёжи. Раскрывается психологический смысл понятия «чтение». Исследовано преимущества использования мобильных технологий при изучении комплекса «Хафт шуаро».

Ключевые слова. Духовная ценность, мотив, деятельность, информационные технологии, духовное наследие, первоисточник.

NEEDS AND MOTIVES FOR STUDYING STUDENTS' RELATIONS TO SPIRITUAL HERITAGE (BASED ON THE EXAMPLE OF STUDYING THE HAFT SHUARO COMPLEX)

Annotation

The article analyzes from a psychological point of view the role and significance of primary sources in the development of moral values among students of technical universities. Based on the requirements of innovative pedagogical conditions and the rules of the information environment, the main attention is paid to the tasks of improving the development of moral values among young people. The psychological meaning of the concept of "reading" is revealed. The advantages of using mobile technologies when studying the Haft Shuaro complex were explored.

Keywords. Spiritual value, motive, activity, information technology, spiritual heritage, primary source.

Kirish. Hozirgi kunda turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, yosh avlod ongida ma'naviy immunitetni shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda ma'naviy merosimizni o'rganish va targ'ib etish zarur.

Boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta'lif yo'nalişlarida tahlil olayotgan o'quvchi va talabalarga batafsil ma'lumot berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o'rtasida keng targ'ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma'naviyat va amaliyat rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish [1], shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanadigan darajaga ko'tarish hamda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirishga, ularning madaniy savodxonligi o'sishi orqali inson kapitali sifatini yaxshilash [2] hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Muammoning psixologik jihatlari hamda bo'lajak o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasining o'ziga xos jihatlari, talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, olyi o'quv yurtlarida ta'lif va tarbiya kabi masalalar O.A. Abdulina, Ye.V. Bondarevska, V.A. Karakovskiy, N.V. Kuzmina, A.G. Maklakov, L.Kuns, L.Mitina, P.I. Pidkasitsiy, N.Rozov, I.Surina, V.Slastenin, A.Seruy, A.P. Seyteshev, A.Sharov, Ye.Shiyanov tomonidan tadqiq etilgan. Davr, taraqqiyot uzlusiz ta'lif jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyati V.P. Bespalko, Y.K. Babanskiy, M.V. Klarin, Ye.S. Polat, A.P. Tryapitsina, V.V. Yudin va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Metod va metodologiya. Talaba yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan munosabatini aniqlashda qiyosiy-tahsilili va psixologik suhbat metodlaridan foydalаниldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy qadriyatlarini asrash hamda ularni yosh avlodga o'rgatish borasidagi ma'ruza va nutqlari muammoning metodologik asosini tashkil etadi.

Natija. Tadqiqotimiz ko'rsatganidek, ma'naviy merosga murojaat qilish talabalarni yangi bilimlar, jamiyatning ma'naviy-axloqiy salohiyati haqidagi g'oyalari bilan boyitish, xalq idealidan ibrat olish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish samaradorligi nafaqat yangi pedagogik usullarni joriy etishga, balki uni amalga oshiradigan yangi shartlarni aniqlashga bog'liqdir.

Texnika olyi ta'lif muassasasi talabalarida ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishning quyidagi samarali yo'llarini aniqladik va amaliyotga tatbiq etdik:

- Feruz shajarasi shoirlari o'z davrining bilimdoni, yetuk g'azalnavis bo'lganlar, ulardan boy ma'naviy meros qolgan. Manbalarning guvohlik berishicha, aslida XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda jadid shoirlari bilan birga, diniy adabiyot va saroy adabiyoti vakillari ham faoliyat ko'rsatdilar. Feruz saroyidagi shahzoda shoirlarning "Haft shuaro" dagi she'rlari o'sha davrdagi ijodiy jarayon yo'nalişini yaqqol aks ettiradi. Texnika olyi ta'lif muassasalarini talabalarida shoirlar g'azaliyotidagi mumtoz an'analarning ustuvorligini o'zida mujassam etgan, adabiy lug'atni shakllantirish va boyitishga qaratilgan "Sharq she'riyati" deb nomlangan lug'at to'plami yaratish. Binobarin, "Sharq she'riyati an'anaviy she'riyat bo'lib, uning daxlsiz an'anaviy shart, qoida, talab va xususiyatlari ayon bo'lsa ham, an'ana iste'dodni tarbiyalaydi, did, saviya, imkoniyatlarining ochilishi va kengayishiga behad ta'sir ko'rsatadi" [5].

• Shoirlarning ruboilyari insonning zohiriy va botiniy poklikka erishuvি, kamoloti sirlari haqida babs yuritilgani bilan hozirgi kun uchun ham barkamol insonni tarbiyalashda ahamiyatlidir. Ma'lumki, Navoiyning navosi o'zidan keyingi barcha ijodkorlarga saboq bergan, ularga ustoz ijodxonasi sifatida bag'rini ochgan. Bu navodan bahra olmagan shoirlarning o'zi bo'lmasa kerak. Sultoniy ham ana shunday ijodkorlardan biri sifatida Navoiyga hamohang tarzda o'z orzu-istiklarini, qalb kechinmalarini bayon etadi. Talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda didaktik vositalarni variativ shakllarda tayyorlash. Bunda bir darsda qo'llanilgan vositalardan boshqa darsda ham va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida ham qo'llanilishiga e'tibor qaratildi.

• XX asr boshlari Xorazm vohasi shoirlari qoldirgan boy ma'naviy meros axloqiy ahamiyatiga ega bo'lganligi tufayli pedagogika tarixi sohasida muhim manba sanaladi. "Haft shuarо" majmuasining uch tilda tayyorlangan elektron ilovasini parallel yo'lg'a qo'yish mutanosiblikda talabalarga so'zlar va tushunchalarni o'zlashtirishga imkon berish. Bunda dastlab, talabalarning uch tildagi lug'at zahirasini shakllantirish ishlari olib borildi.

• Feruz shajarasiga shoirlarining aql – zakovati, ilmi, mumtoz adabiyot, shuningdek rubojynavisilik an'analari rivojiga katta hissa qo'shgan muxammasnavis sifatida hozirgi kunda ham ibrat maktabitidir. Talabalarning anglash, tushunish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida to'plamlar qiyosiga tegishli uch tilda terminologik so'zlar qo'llandi.

Muhokama. Ma'lumki, zamonaliv psixologiyada "motiv" atamasi subyektni faollshtiruvchi turli ko'rinish va xodisalarni belgilash uchun qo'llaniladi. Motivlar sifatida ehtiyoj va qiziqishlar, havas va his –tuyg'ular, maqsad va ideallar aks etishi mumkin. Insonning ma'naviy merosni o'rganishga bo'lgan munosabati motivlari nisbatini o'rganish katta tajriba va ilmiy qiziqish talab etadi.

Mutolaa ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, psixologiya fani asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'kidlash joizki, "faoliyat", "muloqot", "ong", "shaxs", "shakllanish" va boshqa kategoriyalar psixologiya fani tizimida asosiy tushunchalar hisoblanadi. Mutolaa –bu mohiyat matn mazmunining ijtimoiy subyektning turli talablariga faol, maqsadli mos kelishi va bo'ysunishini o'z ichiga olishdan iborat bo'lgan bilim orttirish –kommunikativ faoliyatning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Kitob mutolaa qilish shaxsnинг ma'naviy talabi va qiziqishlariga javob bera oladigan muntazam faoliyatga aylangandagina, o'z-o'zidan rivojlanishga qodir bo'lgan mustaqil ehtiyoj predmetiga aylanadi.

Talaba yoshlarning qiziqtgirgan kitob mutolaasi vaqtinchalik psixologik holatni yuzaga keltirsada, mazkur mavzu bo'yicha chuqur qiziqish paydo bo'lganini bildirmaydi. Matn bilan qiziqish psixologik holat bo'lib, diqqat konsentratsiyasi bilan mutolaaning ijobiy emotsiyonal ohangi moslashadi va qabul qilish, fikrlash, idrok etish, yodda saqlab qolish jarayonlari optimal darajasi bilan xarakterlanadi.

Talaba yoshlarning qiziqishi shakllanishining mazmunini tushunish uchun quyidagilarga murojaat qilish lozim:

a) qiziqishning obyektiv tomoni (mutolaaga tashqi ta'sir, yoshlarning mutolaaga bo'lgan real ehtiyoji);

b) talaba yoshlarning mutolaaga bo'lgan ehtiyojini anglash darajasi;

v) qiziqishning subyektiv tomoni (mutolaa maqsadi va motivi)

g) muntazam mutolaa mazmuni va xarakteriga qiziqishning paydo bo'lishi.

Ta'kidlash joizki, kitob mutolla qilish talaba yoshlar shaxsinining ikki sohasiga: uning tafakkuri va emotsiyalariga yoki, boshqacha aytganda, inson aqli va sezgilariga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamona olimlari asab tizimi asosiy xossalarning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning bilish faoliyatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha katta tadqiqotlar olib bormoqdalar. Tadqiqotchilar intellektning tipologik xususiyatlari, uning umumiyligi va o'ziga xos omillarini tahlil qilib, ularning bilish faoliyatini ko'rsatkichlari: bilishga qiziqishning kengligi, aqliy faoliyikning oson ta'sirlanishi, uning o'zgaruvchanligi yoki barqarorligi, qizg'inlik darajasi, axborotni saqlash vaqtini, yangi axborotni o'zlashtirish usullari va shu kabilarga ta'sirini tavsiflamoqdalar [9-12].

Shu bois biz tadqiqot davomida "Haft shuarо" majmuasining yaratilishi, nusxalari va tuzilishini tadqiq qilishning texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishni ham muhim omil, ham samarali mexanizm, ham zaruriy pedagogik-psixologik sharoit sifatida ko'rib chiqdik. Shu yo'nalishda tajriba-sinov ishlarni olib borish uchun bosqichli metodik ishlar majmuasini tizimlashtirdik. Unga ko'ra, tadqiq qilishning dastlabki bosqichida talabalarni majmua bilan tanishtirish, ularning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish usullari va vositalari ajratib olindi.

Feruz shajarasiga mansub shoirlarning ma'naviy merosini tadqiq etish, ilg'or g'o'yalarini yosh avlodga yetkazish jamiyatimizni milliy-ma'naviy rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishda o'zining samarasini beradi. Shoirlarning ma'naviy merosini o'rganish milliy qadriyatlarimizni mustahkamlashda, Xorazm vohasi tarixida inson to'g'risidagi muammolarni hal etish uni to'g'ri anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish yo'llarini aniqlashda birlamchi manbalarni tadqiq qilish, innovatsion pedagogik sharoit talablari, axborot muhitini qoidalari negizida takomillashtirish vazifalarini ustuvorlik qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Al-Xorazmiy, Mahmud Zamashshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiruddin Rabg'uzyi, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkociy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan» [3].

"Haft shuarо"ning maydonga kelishi, XIX asrning II yarmidan shaxsan Feruz tashabbusi bilan keng avj olgan kitobat va badiiy asarlarni targ'ib qilish, umuman, kitobxonlik miqyosining kengayishi kabi omillar bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, kitobxonlikni o'sha davr sharoitida ma'rifat yoyishning muhim shakli deb bilgan Feruz o'z hukmronligining dastlabki davridan boshlab, ijod ahlini rag'batlantirishga, ularning bayoz, devonlar tuzishiga, tarjima asarlarini ko'paytirishga alohida e'tibor berdi. Bu o'rinda, ustoz Ogahiy she'rlarini devon ("Ta'viz ul-oshiqin") qilishda ham shaxsan Feruzning hissasi borligini aytish joizdir. Buni Ogahiyning o'zi shunday e'tirof etadi: "Va oning (Feruzning - I.X) malohatparvar tilidan necha nav' tahsin va ofarimlarni eshitib, nihoyatsiz shod va xurram bo'lur erdim va bir necha muddatdin so'ng bir kun faqirga inoyat nazari bila boqib, dilnavozlik yuzidin xitob qilib dedikim: "Barcha musavvadalarlardagi, bayozlardagi va o'zga yerlardagi parishon bo'lgan she'rlarining jam' etib, devon suratida tartib bergil va onga debocha ham yosob, so'ngra aytlig'on ash'oringni hamul devonda o'z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig' tergil" [4].

Ta'limiy tadqiqotlar davomida ta'lim jarayoniga mobil texnologiyalarni qo'llash o'qitishning istiqbolli usullaridan biri ekanligi aniqlandi.

Talaba yoshlar mobil texnologiyalarni juda ma'qul ko'radilar va undan muntazam ravishda o'zlarining shaxsiy faoliyatlarida foydalanib keladilar. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarining talablari o'qituvchilardan tarbiyaviy maqsadlarni

rejalashtirishni, shuningdek ta’lim samaradorligini oshirish, ta’lim sharoitlarini yaxshilash, bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun mobil qurilma va texnologiyalarni qo‘llash lozimligini ko‘rsatmoqda. Jamiyat ravnaqi, mamlakat taraqqiyoti uchun biz keyingi avlod pedagoglarini, dasturchilarini, olimlarini, kashfiyotchilarini, muhandislarini va tadbirkorlarini tarbiyalashimiz lozim.

Mobil ta’lim juda keng imkoniyatlarga ega. Bular birinchi navbatda, dars mashg‘ulotlarini tashkil etish sharoitini ta’lim muassasasi imkoniyat darajasiga nisbatan kengaytira olish, ikkinchidan, ta’lim olish vaqtini belgilangan chegaralaridan ham oshira olish vaziyatini yaratadi.

Ta’kidlash joizki, texnika oliv ta’lim muassasasida “Haft shuar” majmuasini o‘rganishda mobil texnologiyalardan foydalanish bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinidan, mobil ta’limda makon va zamon tushunchalarining ahamiyati yo‘q, ya’ni mobil ta’lim bu – mobil texnologiya yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtida ma’lum bir manba xususida ma’lumot olish imkoniyatidir; ikkinchidan, mobil texnologiyalardan ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish talabalarning bilim olish motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi; uchinchidan, mobil ta’lim – bu o‘quv materiallarini mobil telefonlarga shunchaki joylashtirishi emas, balki innovatsion usullarni joriy etish vositasidir; to‘rtinchidan, mobil ta’lim talabalar o‘rtasida axborotlar almashinuvini zamonaviy simsiz texnologiyalar (Wi-Fi, Bluetooth, WAP, GPRS va h.k.) orqali amalga oshirishning qulay imkonidir; beshinchidan, talabalar imkoniyatlarini faollashtiradi va ularning mustaqil ishslash faoliyati samaradorligini oshiradi.

Demak, oliv ta’lim muassasalari didaktik jarayonining sifatini oshirishda axborot xizmati tizimini modellashtirish bir qator bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi: maqsadni aniqlash, tahlil qilish, bashorat qilish, rejalashtirish, ijroni tashkil etish, nazorat, tartibga solish va korreksiyalash.

Xulosa va takliflar. Ta’limiy tadqiqot davomida “Haft shuar” majmuasini o‘rganish asosida texnika oliv ta’lim tashkiloti talabalarida ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliliklari ajratildi:

1. Ushbu xizmat o‘quv ma’lumotlarining vizualizatsiyalash jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Chizmalar, grafiklar, animatsiya, gipermatn, multimedia, modellashtirish elementlari, tovush orqali tahsil oluvchilarining virtual bilim egallashlari imkoniyatlarini kengaytiradi. Ma’lumki, “Haft shuar”dagi she’rlar har qancha rang-barang bo‘lmasin, ular asosini g‘azzallar tashkil etishi shu bilan asoslanadi. Atoqli adabiyotshunos A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, “U davr (XIX asr oxiri - XX asr boshi - I.X.) adabiy muhitida lirikada g‘azalchilik yetakchi o‘rinda turar, hamma g‘azal yozish bilan she’riy iste’dodini sinar edi” [6].

“Sharq she’riyati an’anaviy sho’riyat bo‘lib, uning daxlsiz an’anaviy shart, qoida, talab va xususiyatlari ayon bo‘lsa ham, an’ana iste’dodni tarbiyalaydi, did, saviya, imkoniyatlarining ochilishi va kengayishiga behad ta’sir ko‘rsatadi” [7]. Mazkur tarbiyaviy ahamiyatga ega g‘azallarni tovush orqali tinglovchiga yetkazish, uning yangi elektron ilovasini yaratish imkon mavjud.

2. Ma’lumot egallash va bilim o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi hamda ta’lim natijalarini kafolatlashga zamin hozirlaydi. Bu didaktikaning interfaollik tamoyili asosida sodir bo‘lib, tahsil oluvchilarining o‘quv materialini murakkablik darajasi asnosida tanlash imkoniyatiga egaligi bilan tavsiflanadi. Axborot xizmati talaba uchun har qanday murakkab topshirqlarni uddalash, ularni yakunlash imkonini beradi. Demak, ushbu xizmat asosida pedagogik jarayon subyektlari (pedagog va tahsil oluvch) o‘z faoliyatining natijasini sarhisob qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

3. Ushbu jarayon ishtirokchilarida diqqat, idrok, tasavvur, mantiqiy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlanadi, kreativ fikrash qobiliyatları, hissiy-emotsional tuyg‘ulari shakllantiriladi. Adabiyotshunos N.Jumayev ta’kidlaganidek: “Ustozlar g‘azallariga muxammaslar bog‘lash g‘azalchilikda mahorat qozonishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan, chunki nazira va muxammaslar yozish original g‘azal yaratish yo‘lidagi o‘ziga xos mashq, tayyorgarlik vazifasini o‘tagan” [8].

4. O‘quv-biluv, kasbiy, ijtimoiy, siyosiy faoliyatni tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Majmuaga oid dasturiy vositalarni yaratishda Microsoft Internetning Explorer brauzeri, HTML tili, Microsoft Office FrontPage dasturlash tili, Microsoft Office PowerPoint prezentsatsiyalar yaratish dasturiy vositalardan keng foydalaniladi. Multimediali tizimlar ma’lum darajada texnik vositlarni, apparatlarni talab qiladi.

Talabalarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish samaradorligi nafaqat yangi pedagogik usullarni joriy etishga, balki uni amalga oshiradigan yangi shartlarni aniqlashga bog‘liqdir. O‘quv jarayonida “axborot savodxonligi” ham o‘qituvchi, ham talaba uchun hal qiluvchi o‘rin tutadi. Uning ahamiyati axborot olish va almashishning zamonaviy usullarini bilish, moslashtirish va ularni amaliyotda qo‘llashga tayyorlik kabi bir qancha jihatlarda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sон “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, taddiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 14.12.2020 yil 781-sон Qarori
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 241.
4. Muhammad Rizo mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. I jild. Devon. Nashrga tayyorlovchi G‘.Karimov. T.: Adabiyot va san‘at, 1971- B. 44–45.
5. Haqqulov I. Avazning she’riy mahorati haqida// Avaz va uning adabiy muhiti –T.: Fan, 1987- B.165.
6. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. –T.: O‘qituvchi, 1997.- B. 43
7. Jumayev N. Ustoz ijodi – mahorat maktabi. //Adabiy meros. T.,1985. №3.
8. Хажиева И.А., & Юсупов Ф. (2012). К проблеме воспитания образованного интеллектуально развитого студента в современной социокультурной ситуации. Илм сарчашмалари, УрДУ, Урганч, (11), 89.
9. Khadjieva I.A. (2019). Development of spiritual and moral values of students on the basis of innovative technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
10. Iroda KHADZHEVA. Sultoniy ijodiyotini pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish (“Haft shuar” majmuasi asosida). Жамият ва инновациялар. 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 266-271-b.
11. И.А.Хажиева. Дидактика гуманитарных дисциплин при создании адаптивной модели компьютерного обучения для студентов вузов технического направления. Ilm ham jamiyat.№3. 2022. 28-30-б
12. Khajieva I. The role of spiritual values in the light of the idea of the harmoniously developed person in the education process. Mintaqada zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari.№1ю 2017. 60-64-6.